

PRESS-RELIZ

“El-yurt umidi” jamg‘armasi kunlari: bilim, taraqqiyot va kelajak uchun teng imkoniyatlar

8-oktabr kuni mamlakatimizning barcha hududlarida xalqaro ta’lim dasturlarini ommalashtirish, yoshlarni global akademik hamjamiyatga jalb etish va O‘zbekistonning inson kapitalini mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli ta’lim marafoni — **“El-yurt umidi” jamg‘armasi kunlari** boshlandi.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida ushbu uchrashuvlarda tuman va shaharlardan ishtirokchilar onlayn ravishda ham ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Tadbirlar Boshqaruv samaradorligi agentligi viloyat filiallari, Yoshlar ishlar agentligi, maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari va bir qator hamkorlar ko‘magida tashkil etildi.

Tashabbusning asosiy maqsadi — mamlakatning barcha hududlarini qamrab olish, imkon qadar ko‘proq iqtidorli yigit-qizlar, ayniqsa, chekka hududlar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari vakillari dunyoning yetakchi universitetlarida ta’lim olishning imkoniyatlari haqida ma’lumot olishlarini ta’minlashdir. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan bir necha bor ta’kidlanganidek, sifatli ta’lim inson kapitalini rivojlantirish, uzoq muddatli istiqbolda kambag‘allikni qisqartirishning asosiy “harakatlantiruvchi kuchi”dir. Bu so‘zlar davlatning ta’lim sohasidagi butun siyosatining falsafiy asosiga aylanmoqda: nafaqat infratuzilmaga, balki, eng avvalo, insonga, uning bilimi, malakasi va hayotni yaxshi tomonga o‘zgartirish qobiliyatiga sarmoya kiritish.

Uchrashuvlarda “El-yurt umidi” jamg‘armasi mas’ul xodimlari ishtirok etib, jamg‘arma faoliyati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli mutaxassislarning xorijda ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlash, ularda kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida belgilangan yangi vazifalar va yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida so‘zlab berdi. Shuningdek, uchrashuv davomida ochiq stipendiya tanlovlari o‘tkazish tartibi va nomzodlarga qo‘yiladigan talablar tushuntirildi. Stipendiatlar xorijda o‘qishni tugatganidan so‘ng ularni O‘zbekistonda munosib ishga joylashtirish, kasbiy va mansab pog‘onalarida ko‘tarish, Milliy kadrlar zaxirasi kiritish kabi masalalar bo‘yicha ma’lumot berildi.

Jamg‘arma xodimlari va stipendiatlari bilan bo‘lib o‘tgan ochiq muloqotlar, mahorat darslari va motivatsion uchrashuvlar yoshlarga dunyoning nufuzli jahon ta’limiga yo‘l barcha uchun — yashash joyi, ijtimoiy mavqeyi yoki oilasining daromad darajasidan qat’i nazar — ochiqligini ko‘rsatdi.

Ushbu tashabbus Jamg‘arma faoliyatining strategiyasi — **“hech kim chetda qolmasligi kerak”** degan asosiy tamoyilini aks ettiradi. Tadbirlar iqtidorli maktab o‘quvchilari va talabalarni qo‘llab-quvvatlash, xotin-qizlar, kam

ta'minlangan oilalar farzandlari, shuningdek, davlat xizmatchilari uchun sifatli ta'limga teng kirish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Jamg'arma davlat va yoshlar o'rtasida bilim va ishonchning yangi madaniyatini shakllantirmoqda. "El-yurt umidi" jamg'armasi kunlari doirasidagi har bir uchrashuv norasmiy muloqot bo'lib, unda yoshlar muvaffaqiyatning haqiqiy misollarini ko'rib, mamlakat kelajagi ularning qo'lida ekanligini anglab yetdilar. O'zbekistonning zamonaviy siyosati aynan shunday qurilmoqda: ta'lim — bu imtiyoz emas, balki huquq; maqsad emas, balki kuchli jamiyat va barqaror rivojlanish yo'lidir.

Turli formatdagi tadbirlar **18-oktabrga qadar davom etdi**. Yuzma-yuz va onlayn uchrashuvlar hamda muloqotlar doirasida **65 mingdan** ortiq yoshlar, shu jumladan, chekka hududlardan **40 mingga** yaqin kishi jalb etildi.

Ma'lumot uchun: 2018–2025-yillarda "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan **2 ming 300 nafarga** yaqin stipendiatlar 45 taga yaqin davlatga o'qishga yuborilgan. Hozirgacha ularning 1 ming 400 nafarga yaqini O'zbekistonga qaytib, iqtisodiyot tarmoqlarida, ta'lim, fan, tibbiyot va davlat boshqaruvida ishlamoqda. Bugungi kunda 700 nafarga yaqin stipendiat "TOP-300" talikdagi nufuzli universitetlarda ta'lim olyapti.

"El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan 2025–2026 o'quv yili uchun nufuzli xorijiy universitetlarda ta'lim olish uchun: bakalavriat ta'lim dasturlari uchun **130 ta**, magistratura uchun **220 ta**, doktorantura uchun **100 ta o'ringa stipendiyalar ajratilishi rejalashtirgan**. 2025-yilning birinchi ochiq stipendiya tanlovining barcha bosqichlar yakunlari bo'yicha Boshqaruv kengashi qarori bilan **173 nafar** nomzod "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "El-yurt umidi" stipendiyasi sovrindori" deb e'tirof etildi, shu jumladan 25%i — xotin-qizlar. Stipendiatlar dunyoning yetakchi universitetlariga o'qishga kirdi (qariyb 70 foizi "TOP-100" talikdagi universitetga o'qishga kirgan): Buyuk Britaniya — 73 nafar (42%), AQSH — 45 nafar (26%), Xitoy — 20 nafar (12%).

"El-yurt umidi" jamg'armasi
Jamoatchilik bilan aloqalar va axborot xizmati

ПРЕСС-РЕЛИЗ

Дни Фонда «Эл-юрт умиди»: равные возможности для знаний, развития и будущего

8 октября в республике стартовал масштабный образовательный марафон — **Дни Фонда «Эл-юрт умиди»**, направленный на популяризацию программ международного образования, вовлечение молодежи в глобальное академическое сообщество и укрепление человеческого капитала Узбекистана.

Благодаря современным технологиям участники из районов и городов, которые не имели возможности приехать, смогли присоединиться к диалогу в онлайн-формате. Мероприятия были организованы при поддержке областных филиалов Агентства эффективности управления, территориальных управлений Агентства по делам молодежи, дошкольного и школьного образования и ряда других партнеров.

Главная задача инициативы — обеспечить **широкий охват всех регионов страны**, чтобы как можно больше талантливых юношей и девушек, особенно из **отдалённых территорий и социально уязвимых слоёв населения**, узнали о реальных возможностях обучения в **ведущих университетах мира**. Как неоднократно подчеркивал **Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев**, качественное образование и развитие человеческого капитала являются главным драйвером сокращения бедности в долгосрочной перспективе. Эти слова становятся философской основой всей политики государства в сфере образования: инвестировать не только в инфраструктуру, но и — прежде всего — **в человека**, в его знания, компетенции и способность менять жизнь к лучшему.

На встречах приняли участие ответственные сотрудники фонда «Эл-юрт умиди», которые рассказали о деятельности фонда, новых задачах, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по поддержке обучения за рубежом одаренных специалистов, развитию их профессиональных навыков и стимулированию», и возможностях, создаваемых для молодежи. Также в ходе встречи были разъяснены порядок проведения открытых конкурсов на соискание стипендии и требования к кандидатам. Была предоставлена информация по вопросам достойного трудоустройства стипендиатов в Узбекистане после завершения обучения за рубежом, продвижение по профессиональной и карьерной лестнице, включение в Национальный кадровый резерв.

Открытые диалоги, мастер-классы и мотивационные встречи с сотрудниками и стипендиатами Фонда показали молодежи, что путь к престижному мировому образованию открыт для всех — независимо от места жительства, социального статуса или уровня доходов семьи.

Эта инициатива также отражает ключевой принцип деятельности Фонда — **«никто не должен остаться в стороне»**. Речь идёт не только о поддержке талантливых школьников и студентов, но и о расширении равного доступа к качественному образованию для **девушек, женщин, детей из малообеспеченных семей**, а также государственных служащих.

Фонд становится не просто инструментом отбора стипендиатов — он формирует **новую культуру знаний и доверия** между государством и молодёжью. Каждая встреча в рамках Дней Фонда «Эл-юрт умиди» — это неформальный диалог, где молодёжь видит реальные примеры успеха и осознаёт, что будущее страны — в их руках. Именно так строится современная политика Узбекистана: **образование — это не привилегия, а право; не цель, а путь к сильному обществу и устойчивому развитию**.

Мероприятия проходили по всей стране до **18 октября**. В рамках встреч и диалогов в офлайн и онлайн-форматах было охвачено **более 65 тысяч** молодёжи, в том числе около **40 тысяч человек** из отдалённых районов.

Для справки: в 2018–2025 годах фондом «Эл-юрт умиди» свыше 2400 стипендиатов были направлены на обучение примерно в 45 стран. На сегодня около 1400 из них вернулись в Узбекистан и работают в отраслях экономики, образования, науки, медицины и государственного управления. В настоящее время более 700 стипендиатов обучаются в престижных университетах, входящих в ТОП-300.

Фондом «Эл-юрт умиди» в 2025–2026 учебном году предусмотрено выделить стипендии на обучение в престижных зарубежных университетах: 130 мест для программ бакалавриата, 220 мест для магистратуры и 100 мест для докторантуры. По итогам первого открытого конкурса в 2025 году решением Управляющего совета 173 кандидата были признаны лауреатами стипендии Президента Республики Узбекистан «Эл-юрт умиди», в том числе 25% — девушки и женщины. Стипендиаты поступили в ведущие университеты мира (около 70% — в университеты, входящие в ТОП-100): Великобритания — 73 человека (42%), США — 45 человек (26%), Китай — 20 человек (12%) и другие страны.

**Служба по связям с общественностью и информации
Фонда «Эл-юрт умиди»**